

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.U.Nurmatova	
Yusuf Hamadoniy- tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi, mutasavvuf olim	428
S.Q.Qaxxorova	
Yoshlar ma'naviy salohiyatini oshirish ularni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash istiqbollari.....	432
A.E.To'Iqinov	
Janubiy Farg'ona kanali suvining tabiiy-geografik tavsifi	437
Sh.T.Abbosova	
Yurtimiz taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya strategiyasining istiqbollari	442
М.Мирзарахим	
Роль педагогических стратегий в интеграции искусственного интеллекта.....	448
B.A.Talapov	
Yangi O'zbekistonda inson huquqlari: xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi	454
Z.Y.Adilov	
Mahmud Az-Zamaxshariy ma'naviy merosining falsafiy tahlili	459
D.D.Boymirzayeva	
Bo'lajak ta'lif menejerlarida ijtimoiy ijodkorlikni shakllantirish va uning tashkiliy-boshqarish mexanizmlarini modernizatsiyalash.....	464
I.I.Soliyev	
Oliy ta'lif muassasalarida institutsional mustaqillik tamoyillarini joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari	468
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyon go'shti aminokislota tarkibini o'rganish.....	472
Z.M.Mamatov, A.A.Ibragimov, O.M.Nazarov	
Quyon qo'shimcha mahsulotlarining mineral tarkibini o'rganish.....	477
O.O.Isaqov	
Talabalarda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik tashxisi	483



УО'К: 341.231.14

YANGI O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARI: XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY QONUNCHILIK UYG'UNLIGI

ПРАВА ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ: ГАРМОНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ И НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

HUMAN RIGHTS IN THE NEW UZBEKISTAN: HARMONY OF INTERNATIONAL STANDARDS AND NATIONAL LEGISLATION

Bahriiddin Alijanovich Talapov 

Namangan davlat universiteti professor, falsafa fanlari doktori(DSc)

Annontatsiya

Maqolada inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar va O'zbekistonning milliy qonunchiligi o'rtaidiagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro inson huquqlari hujjatlariga, jumladan, BMTning inson huquqlari bo'yicha asosiy konvensiyalariga qo'shilishi va ularni milliy qonunchilikka integratsiya qilish jarayoni ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, yangi qonun va tartiblarning amalga oshirilishi, ularning inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar hamda bu boradagi muhim qadamlar va muammolar bayon etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi, O'zbekistonda inson huquqlari sohasidagi xalqaro talablar bilan milliy qonunchilik o'rtaidiagi uyg'unlik va uning ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan tashabbuslarni baholashdan iboratdir.

Аннотация

В статье анализируется взаимодействие между международными нормами в области прав человека и национальным законодательством Узбекистана. Рассматривается процесс интеграции Республики Узбекистан в международные правозащитные механизмы, включая ключевые конвенции ООН по правам человека, а также их имплементация в национальное законодательство. Особое внимание уделяется внедрению новых законов и процедур, направленных на обеспечение соответствия международным стандартам в области прав человека, а также проблемам и достижениям, возникающим в процессе этой интеграции. Основной целью статьи является оценка усилий, направленных на гармонизацию международных требований и национальных норм в области прав человека в Узбекистане и их практическую реализацию.

Abstract

This article analyzes the interaction between international human rights norms and the national legislation of Uzbekistan. It examines the process of Uzbekistan's integration into international human rights instruments, including key UN human rights conventions, and their implementation into national law. Special attention is given to the introduction of new laws and procedures aimed at ensuring compliance with international human rights standards, as well as the challenges and achievements arising during this integration process. The main goal of the article is to assess efforts aimed at harmonizing international requirements and national regulations in the field of human rights in Uzbekistan and their practical implementation.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standart, inson huquqlari, qadr-qimmat, erkinlik, e'tiqod va axborot erkinligi, so'z va fikrlar erkinligi, demokratik davlat, huquqiy davlat, dunyoviy davlat.

Ключевые слова: международные стандарты прав человека, права человека, достоинство, свобода, свобода вероисповедания и информации, свобода слова и мысли, демократическое государство, правовое государство, светское государство.

Key words: international human rights standards, human rights, dignity, freedom, freedom of religion and information, freedom of speech and thought, democratic state, rule of law, secular state.

KIRISH

Jahon miqiyosida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning asosiy maqsadi insonlarning qadr-qimmatini himoya qilish, odamlarning hayoti va erkinligini ta'minlash, ularning qadriyatlariga e'tibor qilish va xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida har bir insonning tug'ilishi bilan birga, vujudga keladigan huquqlari va qadr-qimmatini tan olish va himoya qilish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu deklaratsiyaning maqsadi — har bir insonning huquqlarini himoya qilish, ularni buzilishini oldini olish va insonlarga tenglik, erkinlik berish va ularning qadr-qimmatini ta'minlash iborat.

Mazkur muhim xujyatda har bir insonning tug'ilishi bilan millati, irqi, jinsi yoki diniy e'tiqodiga qaramay qadr-qiyomatga va barcha odamlar teng huquqlarga ega bo'lishi, ta'lif olish, tibbiy xizmatlardan foydalanish, erkinlik va siyosiy va ijtimoiy hayotga to'liq qatnashish huquqlariga bo'lishi mustahkamlab qo'yilgan. Shuningdek, deklaratsiyada har bir insonning faol va erkin qarorlar qabul qilishi, e'tiqod va axborot erkinligi, so'z va fikrlar erkinligi kabilarning o'z ifodasini topishi deklaratsiyaning erkinlik va adolat bilan ta'minlashdagi ahamiyati naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yangi O'zbekiston jahon miqiyosida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va mustahkamlash borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar — bu odamlar va jamiyatlar uchun umumiyligida qilingan qoidalari, prinsiplari va talablar bo'lib, ular insonlarning asosiy huquqlarini himoya qilish, rivojlantirish va ularni ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Bu standartlar inson qadri, haq-huquqlari va erkinliklariga rioya qilishni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi bu standartlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda, bugungi kunda ularning aksariyatiga qo'shilgan. O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash sohasida turli xalqaro standartlarga va shartnomalarga qo'shilganligi bu mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilishga bo'lgan e'tiborini va xalqaro huquqiy tizimga moslashib borayotganligini ko'rsatadi. O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlari va ushbu standartlarga qo'shilish jarayoni mamlakatning demokratik islohotlar olib borish, huquqiy davlat qurish va xalqaro maydonidagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan. Ulardan eng muhimlarini keltirib o'tish o'rinni, deb o'yamiz. Bular: BMTning Inson Huquqlari Bo'yicha Xalqaro Pakti (1995-yilda qo'shilgan), Diskriminatsiya qarshi konvensiya (1992-yilda qo'shilgan), Shaxsiyatni himoya qilish bo'yicha konvensiya, Jenevaning huquqlari bo'yicha konvensiya, Qat'iy va tashkiliy zo'ravonlikka qarshi konvensiya (1998-yilda ratifikatsiya qilgan), Halqaro mehnat tashkiloti va mehnat huquqlari (ILO, O'zbekiston 1992-yilda a'zo bo'lgan), Bolalarning huquqlari bo'yicha konvensiya (CRC, O'zbekiston 1994-yilda bu tashkilotga qo'shildi) Yevropa inson huquqlari konvensiyasi kabilalar. O'zbekistonda Yevropa mamlakatlari bilan huquqiy va inson huquqlari sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilib Yevropaning inson huquqlari qonunlari va standartlariga rioya qilishga harakat qilinmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasidagi faoliyati xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish va standartlarga qo'shilish, ularni ratifikatsiya qilishdangina iborat emas.

Mamlakatimiz jahon miqiyosida inson huquqlari va ularni himoya qilish borasida jahon miqiyosida muhim tashabbuslar ko'rsatib kelmoqda. O'zbekistonning bu sohadagi faoliyati milliy va xalqaro miqyosda turli islohotlar va tashabbuslarni o'z ichiga oladi. Bu tashabbuslar inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy davlat qurish va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston 1992-yilda BMTga a'zo bo'lib, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga amal qilishni o'z zimmasiga olishni boshladi. Ushbu faoliyat davomida O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlari va Jenevaning xalqaro gumanitar huquqlariga asoslangan shartnomalarga qo'shilgan. BMTning Inson huquqlari kengashiga a'zo bo'lib, inson huquqlari sohasida xalqaro faoliyatga yordam beradi. Shuningdek, O'zbekiston BMTning inson huquqlari bo'yicha mexanizmlariga (jumladan, Erkinlik va xavfsizlik haqidagi umumjahon deklaratsiyasi) rioya qilish va ularning amalga oshirishini kuzatish borasida faol qatnashmoqda.

O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasidagi jahon miqiyosidagi tashabbuslari davlatning xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlashga va milliy qonunchilikni hamda ijtimoiy himoya tizimini jahon standartlariga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Bu tashabbuslar, shubhasiz, mamlakatda demokratiya, adolat va inson huquqlari sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyatiga qaratilgan muhim qadamlardir.

2023-yili 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi o'zgarishlar mamlakatdagi demokratik islohotlarning yangi bosqichi bo'lib, inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirishga qaratilgan muhim qadamlarni o'z ichiga oladi. Bu o'zgarishlar asosan inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning erkinliklarini kengaytirish va mamlakatda qonun ustivorligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Konstitutsiyaning muqaddimasidayoq "...inson huquq va erkinliklariga,...demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish...ni maqsad qilgan holda ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz" [1], - deyiladi.

E'tiborli shundaki, Konstitutsiyaning 1- moddasidayoq O'zbekiston — boshqaruvinning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi mustahkamlab qo'yiladi. Agar ushbu moddagи O'zbekistonning boshqaruvi respublika shaklidan iborat ekanligiga e'tibor qaratilsa, uning davlat boshqaruvida hokimiyatning oliy manbai xalq ekanini bildirishni anglash mumkin. Respublikada prezident, parlament va boshqa organlar xalq tomonidan saylanadi.

Shu bilan birga, respublikada har bir shaxsning o'z huquqlari va ehtiyojlarini ta'minlashga davlat idoralarining mas'ulligi mustahkamlangan.

Demokratik davlat ekanligi esa hokimiyatning xalq tomonidan, xalq uchun va xalq bilan amalga oshirilishi, bu davlatda siyosiy xuquqlar, erkinliklar va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi kafolatlanganligini, qonunlar barcha fuqarolarga bir xil tatbiq qilinishi, shuningdek, sud tizimi mustaqil va adolatli bo'lishini ifodlaydi.

Huquqiy davlat ekanligi – bu davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari qonunga muvofiq ishlashini talab etadi. Har bir shaxs o'z huquqlarini qonunlar orqali himoya qilinishi nazarda tutadi. Shuningdek, ijtimoiy davlatda davlat fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qiladi. Bu degani, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, oilaviy va ijtimoiy himoyalar to'g'risidagi qonunlarni ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasini zimmasiga oladi.

O'zbekistonning dunyoviy davlatni qaror topshirish muhimligining eng asosiy belgisi — din va davlatning ajratilgan bo'lishidir. O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlat ishlariga aralashmasligi, davlat esa din ishlariga aralashmasligi talab qilinadi. Bu, mamlakatda diniy erkinlikka va har kimning o'z din va ishonchiga bo'lgan hurmatga ega bo'lishini ta'milanishi Konstitutsiyaga norma sifatida kiritilgan. Yuqoridaq normalar O'zbekistonda inson huquqlari, adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy mezonlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 2- moddasи davlat organlarining faoliyati va ularning jamiyat, xalq oldidagi mas'uliyatini belgilaydi. Bu modda davlatning fuqarolik jamiyatini bilan o'zaro aloqalarini, hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarning xalqning irodasiga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Moddada keltirilgan xalq irodasini ifoda etish, ya'ni xalqning xohish-irodasi, ko'rsatmalar va qonunlarning asosiy manbai sifatida qaraladi. Davlat organlari xalqning talablariga, o'z huquqlariga asosan amal qilishga majburligi mustahkamlangan [1].

Shuningdek, moddada davlatning asosiy vazifasi fuqarolarning manfaatlarini ko'zlash va ularni himoya qilishi, xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy huquqlarini ta'minlashi, davlat organlari jamiyatning barqaror rivoji, adolatli tartib va xalq farovonligiga xizmat qilishga majbur ekanligi ta'kidlanadi. Eng muhimi, davlat organlari, shuningdek mansabdor shaxslar, o'z faoliyatida xalqning manfaatlariga xizmat qilishi kerakligi, ular o'z ishi uchun xalq va jamiyat oldida javobgarligi, ularning faoliyatida shaffoflikni va hisobdorlikni ta'minlash lozimligi ko'rsatib berilgan.

Ayni vaqtida davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqarolar oldida yuridik, siyosiy va etik javobgarlikka ega ekanligi, agar ular o'z vazifalarini bajarishda xato qilsa yoki xalq manfaatlariga zid harakat qilsa, ular qonun oldida javob berishlari mutahkamlab qo'yilishi, bular xalqning

ILMIY AXBOROT

huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun muhimligini ta'kidlash o'rinnidir. Avvalo, davlat organlarining asosiy vazifasi — fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qilish va har bir shaxsnинг erkinligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy himoyasini yo'lga qo'yish vaadolatli qonunlar asosida ish yuritish kerakligi yuqoridagi moddada o'z ifodasini topgan. Xulosa qilib ta'kidlash joizki, 2-modda davlatning xalqka bo'lgan mas'uliyatini va u bilan ishslashdagi huquqiy ijtimoiy asoslarni belgilaydi [1].

Davlatning asosiy vazifasi — xalqning manfaatlariga xizmat qilish, ularning irodasini izhor etish va himoya qilishdir. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat oldida javobgar bo'lib, o'z faoliyatida xalq manfaatlariga xizmat qilish va qonunlarga rivoj etish lozim. Bu modda xalqning davlat organlariga ishonchi va ularga bo'lgan talablarni mustahkamlashga qaratilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 13- moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi mustahkamlab qo'yilgan [1].

Yangi taxrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirishga qaratilgan normalarning 3,5 barovarga ko'payganligi mamlakatda huquqiy davlatni barpo etishga, demokratiyani rivojlantirishga va inson huquqlarini himoya qilishga bo'lgan yanada kuchli e'tiborni ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar mamlakatning xalqaro miyosdagi huquqiy pozitsiyasini mustahkamlashga, inson huquqlarining amalga oshirilishida yanada aniqlik va samaradorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda [1].

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yangi qonunlar ham qabul qilingan, jumladan: Qamoqxona va ozodlikdan mahrum qilish muassasalaridagi inson huquqlari, ishslash huquqi va mehnat shartnomalariga oid qonunlar, Shaxsnim himoya qilish va suddan adolatli qarorlar kabi qonunlar mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada natijali ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyatining roli katta ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyatni va nodavlat tashkilotlarining (NTT) faoliyati, inson huquqlari sohasidagi faoliyatni kengaytirish va ommalashtirishga yo'naltirilgan. Ular inson huquqlari, ekologik huquqlar, ijtimoiy ta'minot va demokratik islohotlar borasida turli treninglar, seminarlar va ma'ruza mahfillari o'tkazmoqda. Xususan, Amnesty International va Human Rights Watch kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda inson huquqlari haqidagi axborotlar tarqatilmoqda [3].

Shuningdek, O'zbekistonda inson huquqlari sohasidagi ta'llimi rivojlantirishga, universitetlar va ta'lim muassasalarida inson huquqlari va xalqaro huquqning prinsiplarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular tomonidan turli treninglar va o'quv kurslarining tashkil etilishi, inson huquqlari bo'yicha umumiyligi bilimlarni oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston xalqaro tashkilotlarda, jumladan, BMT, Yevropa Kengashi, Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Islom konferensiysi tashkiloti (IKO) kabi turli forumlarda inson huquqlariga oid tashabbuslar bildirib, ushbu masalalardagi xalqaro huquqiy standartlarga moslashishga intilmoqda. O'zbekistonda inson huquqlarining amalga oshirilishi va ularning samaradorligiga doimiy monitoring o'tkazishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bu jarayonda milliy va xalqaro tashkilotlar ishtirok etmoqda. Xususan, BMTning Inson huquqlari kengashi va boshqa xalqaro kuzatuvchilari davlatning inson huquqlari holatini har yili baho beradi [4].

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasidagi jahon miqiyosidagi tashabbuslari davlatning xalqaro miyosdagi mavqeini mustahkamlashga va milliy qonunchilikni hamda ijtimoiy himoya tizimini jahon standartlariga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Bu tashabbuslar, shubhasiz, mamlakatda demokratiya,adolat va inson huquqlari sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyatiga qaratilgan muhim qadamlardir [5].

XULOSA

O'zbekistondagi demokratik jarayonlar qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasi va huquqiy bazasining mustahkamlanishi demokratik davlat qurish jarayonida muhim o'r'in tutadi. Qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida sud-huquq tizimi isloh qilindi, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar, jumladan, Ombudsman va Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz faoliyati kuchaytirildi. Inson huquqlarini

himoya qilish va ularni hurmat qilishga qaratilgan qonun hujjatlari demokratik davlat qurishda muhim qadamlardan biri bo'ldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.- Т.: Юридик адабиётлар публиш нашриёти, 2024. - 112 б.
2. Ахмедов Д.Қ., Юлдашева Г.Ю. Инсон хуқуqlари умумжаҳон декларациясига шарҳлар. Т.: ТЮДУ нашриёти, 2009. -192 б.
3. Сайдов А. Ўзбекистонда аёллар хуқуqlари. -Т.: Тафаккур нашриёти, 2010. -96 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Инсон хуқуqlари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"ги 23.06. 2020 йилдаги ПФ-60 сонли Фармони. <https://lex.uz/pdfs/4872355>
5. Фуқаровий ва сиёсий хуқуqlар тўғрисидаги Халқаро Пакт. 1966 йил. <https://lex.uz/docs/2640479>
6. Хусанов О. Конституциявий хукуқ. – Т.: Юридик адабиётлар публиш нашриёти, 2024.-539 б.